



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<b>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</b>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<b>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</b>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<b>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</b>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<b>Azimov I. T., Daminova F. A.</b>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<b>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<b>Abdunazarov Bobir Normurodovich</b>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<b>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</b>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<b>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<b>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<b>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</b>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<b>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</b>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<b>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</b>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<b>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</b>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<b>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</b>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<b>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</b>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<b>Имамова Хурият Эргаш кизи</b>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<b>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<b>G'iyosova Dilovar Orif qizi</b>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<b>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</b>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<b>Manzura Qosmuratova</b>	



# IJTIMOYIY XAVF OSTIDAGI BOLALARNI QO'LLAB- QUVVATLASHNING JAHON TAJRIBASI VA PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK ASOSLARI

Manzura Qosmuratova

Jumabek Tashenev nomidagi universitet katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon ta'lim tizimidagi ilg'or modellari (Buyuk Britaniya, AQSH, Finlyandiya va boshqalar) hamda milliy tadqiqotchilarning qarashlari tahlil qilingan. "Ijtimoiy xavf" fenomenining psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning bola rivojiga ta'siri va rehabilitatsiya mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy xavf, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy moslashuv, RTI tizimi, fasilitatorlik, mentorlik, maktab-oila-jamoa hamkorligi.

**Abstract:** The article analyzes advanced models for supporting children at social risk in the global education system (the UK, the USA, Finland, and other countries), as well as the views of national researchers. The psychological and pedagogical characteristics of the "social risk" phenomenon, its impact on child development, and rehabilitation mechanisms are scientifically substantiated.

**Key words:** social risk, inclusive education, social adaptation, RTI system, facilitation, mentoring, school-family-community partnership.

**Аннотация:** В статье анализируются передовые модели поддержки детей группы социального риска в мировой системе образования (Великобритания, США, Финляндия и другие страны), а также взгляды отечественных исследователей. Научно обоснованы психолого-педагогические особенности феномена "социального риска", его влияние на развитие ребенка и механизмы реабилитации.

**Ключевые слова:** социальный риск, инклюзивное образование, социальная адаптация, система RTI, фасилитация, менторство, партнерство школы, семьи и сообщества.

## KIRISH

Jahon ta'lim tizimlari tajribasi ijtimoiy xavf ostida bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash masalasi bugungi kunda ta'lim siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limda teng imkoniyatlar yaratish, bolaning ijtimoiy moslashuvi hamda xavfsiz rivojlanishini ta'minlash bo'yicha samarali modellar ishlab chiqilgan. Mazkur maqolada ushbu tajribalarning nazariy va metodologik asoslari tizimli ravishda tahlil etiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Ijtimoiy xavf" tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi, ammo ularning umumiy jihati shundaki, bu atama shaxsning, xususan, bolaning ijtimoiy muhitda salbiy ta'sirlar yoki befarqlik oqibatida rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni ifodalaydi. Psixologik va pedagogik fanlarda ijtimoiy xavf bolaning normal ijtimoiylashuv jarayoni buzilishi, uning ijtimoiy aloqalardan chetlashishi, ta'lim muhitiga moslashishdagi qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi.

Masalan, J. L. Endryus ijtimoiy xavfni "shaxsning o'z tengdoshlari yoki jamoadan ajralishi natijasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ishtirok darajasining pasayishiga olib keluvchi holatlar tizimi" deb ta'riflaydi.

M. N. Gxongkedze esa "ijtimoiy xavf ostidagi bolalar"ni ota-ona yoki vasiysiz qolgan, ehtiyojlari yetarlicha ta'minlanmagan va muhitning salbiy ta'siriga ochiq bo'lgan shaxslar sifatida belgilaydi.

Ilmiy maktablar kesimida mazkur tushuncha turli yo'nalishlarda talqin etiladi.

**Ekologik-tizimli maktab vakillari** (U. Bronfenbrenner va E. Erikson) ijtimoiy xavfni shaxs atrofidagi mikromuhit (oila, maktab, tengdoshlar), mezomuhit (jamoat, mahalla) va makromuhit (jamiyat, siyosiy-iqtisodiy

sharoit) o'rtasidagi muvozanatning buzilishi natijasi sifatida ko'radilar. Bu yondashuvda bolaning rivojlanishi muhit ta'sirida kechuvchi tizimli jarayon sifatida izohlanadi.

**Individual-psixologik maktab** (K. Rodgers va A. Maslou) esa ijtimoiy xavfni shaxsning ichki ehtiyojlari qondirilmagan, o'z-o'zini anglash va o'zini namoyon qilish imkoniyatlari cheklangan holat sifatida talqin qiladi. Mazkur maktabda bola faol subyekt sifatida qaraladi va xavf holati uning ichki ruhiy muvozanati bilan bog'lanadi.

Pedagogik fanlarda esa ijtimoiy xavf tushunchasi tarbiya va ta'lim jarayonidagi muammolar bilan bog'liq holda tadqiq etiladi. Zamonaviy pedagogikada ijtimoiy xavf bolaning ta'lim muhitidagi ijtimoiy qiyinchiliklarini kamaytirish, uning ehtiyojlariga mos qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish zaruratini anglatadi. Shu bois ijtimoiy xavf pedagogik kategoriya sifatida profilaktika, korreksiya va rehabilitatsiya mexanizmlari bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etiladi. Bu yondashuv pedagogdan nafaqat o'qitish, balki bolani himoya qilish, uning ruhiy barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish funksiyalarini bajarishni ham talab etadi.

Umuman, ijtimoiy xavf tushunchasining pedagogik mazmuni bolaning shaxsiy, oilaviy va jamoaviy muhit bilan munosabatidagi izdan chiqish holatlarini anglashga, ularni pedagogik vositalar orqali yumshatish va bola rivoji uchun xavfsiz muhit yaratishga qaratilgan kompleks ilmiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy xavf fenomenining psixologik-pedagogik va ijtimoiy aspektlardagi o'ziga xos xususiyatlari, avvalo, bolaning kognitiv, emotsional-irodaviy va ijtimoiy ko'nikmalar tizimiga ko'p omilli ta'sirlar kesishmasida namoyon bo'ladi. Psixologik jihatdan bunday holatlarda xavotir va depressiya belgilari, ruhiy jarohatga xos reaksiyalar, o'z-o'zini qadrlash darajasining pasayishi, e'tibor va xotiradagi parchalanishlar, ijtimoiy ishonchning susayishi kuzatiladi; ijro funksiyalari (rejalashtirish, ayni paytdagi nazorat, impulsni tiyish)dagi cheklanishlar ta'lim natijalariga bevosita ta'sir etadi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa bolaning o'quv faolligi pasayishi, davomatdagi uzilishlar, muloqotda qiynalish, o'quv vazifalarini kechiktirish, agressiya yoki o'zini chetga tortish kabi holatlar ko'payadi. Shuning uchun erta skrining, individual ta'lim-tarbiya rejasi, differentsiatsiya va inklyuziv yondashuv, ijtimoiy-emotsional o'qitish elementlarini tizimli qo'llash zarur hisoblanadi.

Ijtimoiy aspektda oilaviy resurslar zaifligi, iqtisodiy qiyinchiliklar, migratsiya va vasiylik muammolari, madaniy va til to'siqlari, stigma va marginalizatsiya, tengdoshlar guruhida qabul qilinmaslik, kiberbulling va raqamli xavflar bolaning ijtimoiy kapitalini qisqartiradi. Maktab, mahalla va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi uzilishlar esa mavjud muammoni yanada chuqurlashtiradi.

Shu bois mazkur fenomenni tushunish va uni kamaytirishda bir vaqtning o'zida uch darajada ishlash talab etiladi:

- psixologiyada rezilientlikni kuchaytirish, xavotir va travmatik emotsional holatlar bilan ishlash;
- pedagogikada qo'llab-quvvatlovchi sinf muhitini yaratish, qayd etiladigan indikatorlar asosida monitoring olib borish, refleksiv muloqot va restavrativ amaliyotlarni qo'llash;
- ijtimoiy sohada esa maktab–oila–jamoa–ijtimoiy xizmatlar o'rtasida keys-menejmentni tashkil qilish, maxfiylik va axloqiy me'yorlarga rioya qilgan holda resurslarni mobilizatsiya etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bularning barchasi bolaning ta'limga qaytishini, ijtimoiy ishtirokini va shaxsiy rivojini tiklashga qaratilgan yaxlit profilaktika–intervensiya–reabilitatsiya sikllari orqali amalga oshirilganda yuqori samara beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik nuqtayi nazardan bolaning ijtimoiy muhit bilan munosabatida xavf holatlari ko'pincha muloqot tizimidagi uzilishlar, o'qituvchi yoki ota-onaning befarq munosabati, tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolar orqali shakllanadi. Masalan, sinfda bir necha marta rad etilgan, yordam so'raganda inkorga uchragan yoki doimiy ravishda salbiy bahoga duch kelgan bola o'zini qadrsiz his eta boshlaydi. Bu ichki izolyatsiyani kuchaytiradi va ta'lim jarayonidagi faollikni pasaytiradi. Shuningdek, ijtimoiy xavfning tashqi muhit bilan bog'liq ko'rinishlari ham mavjud: oiladagi iqtisodiy muammolar, migratsiya oqibatida ota-onasiz o'sish, zo'ravonlik yoki e'tiborsizlik holatlari bolaning maktabdagi emotsional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu jarayonda muhit bilan munosabat ikki yo'nalishda kechadi: faol ijtimoiy ta'sir va passiv qabul qilish. Agar muhit bolaga qo'llab-quvvatlovchi, ijobiy ta'sir ko'rsatsa, u o'z salohiyatini rivojlantiradi, ijtimoiy anglashuv va ishonch darajasi ortadi. Lekin muhit salbiy bo'lsa, u holda bola xavf guruhiga kiradi. Buning oldini olish uchun pedagog bola bilan individual ish olib borishi, uning ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri yo'naltirishi va muhit bilan samarali muloqot o'rnatishiga ko'maklashishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy xavf holatlarini erta aniqlash pedagogik tashxisning muhim qismi hisoblanadi. Boladagi xulq-atvor o'zgarishlari, ta'lim natijalaridagi pasayish, o'qishga nisbatan salbiy munosabat yoki muloqotdagi cheklanish mazkur xavf holatlarining dastlabki belgilaridir.



Pedagog ushbu signallarni o'z vaqtida sezishi va ularni chuqur tahlil qilishi, zarur bo'lsa, psixolog, ijtimoiy pedagog va ota-onalar bilan hamkorlikda korreksion choralar ko'rishi lozim. Natijada bola ijtimoiy muhit bilan bog'liq xavf holatlarini yengib o'tishi, o'z qobiliyatini namoyon etishi va ta'lim jarayoniga faolroq jalb etilishi mumkin bo'ladi. Demak, ijtimoiy xavfni kamaytirish pedagogikaning nafaqat ta'limiy, balki himoyaviy, reabilitatsion va insonparvarlik funksiyalarini ham faol amalga oshirishni talab etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan davlatlarda ijtimoiy xavfni kamaytirish bo'yicha bir nechta muvaffaqiyatli strategiyalar mavjud:

**Buyuk Britaniya:** "Inclusive Education" va "Every Child Matters" dasturlari orqali ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi bolalarning ehtiyojlariga mos maxsus pedagogik texnologiyalar joriy etilgan.

**AQSH:** "Response to Intervention" (RTI) tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, u bolalardagi muammolarni erta bosqichda aniqlash va psixologik-pedagogik ko'mak ko'rsatishga qaratilgan.

**Finlyandiya:** "Three-tier Support System" (uch bosqichli yordam tizimi) orqali har bir bolaga individual yondashuv asosida ta'lim va reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatiladi.

### 1-jadval: Jahon mamlakatlarida ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlash tizimlari

Mamlakat	Dastur/Tizim nomi	Asosiy mexanizmi
Buyuk Britaniya	Every Child Matters	Maktab va ijtimoiy xizmatlarning integratsiyasi
AQSH	RTI (Response to Intervention)	Ko'p darajali intervensiya va erta skrining
Finlyandiya	Three-tier Support	Umumiy, kuchaytirilgan va maxsus individual yordam
Yaponiya	Community-based support	Mahalliy jamoa va maktabning uzviy hamkorligi

Jahon ta'lim tizimlari tajribasi ijtimoiy xavf ostida bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash masalasi bugungi kunda ta'lim siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limda teng imkoniyatlar yaratish, bolaning ijtimoiy moslashuvi va xavfsiz rivojlanishini ta'minlash bo'yicha samarali modellar ishlab chiqilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada "Inclusive Education" va "Every Child Matters" dasturlari orqali ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi bolalarning ehtiyojlariga mos pedagogik texnologiyalar joriy etilgan; AQSHda "Response to Intervention" (RTI) tizimi orqali bolalarni erta aniqlash va psixologik-pedagogik ko'mak ko'rsatish mexanizmi yo'lga qo'yilgan; Finlyandiyada esa "Three-tier Support System" (uch bosqichli yordam tizimi) orqali har bir bolaga individual yondashuv asosida ta'lim va reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatiladi. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xavfni kamaytirishda maktab, oila va jamoa o'rtasidagi hamjihatlik, fasilitatorlik va mentorlikka asoslangan pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bolalarning ijtimoiy integratsiyasi va shaxsiy rivojini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur dissertatsiya mavzusining dolzarbligi ijtimoiy himoya va inklyuziv ta'lim sohasidagi jahon amaliyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u mamlakatimizda ham ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning ilmiy-metodik asoslarini yaratish zaruriyatini belgilaydi. Mamlakatimizda ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim muhitida moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar pedagogika va psixologiya sohasi olimlari tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Xususan, O. M. Matyakubov o'zining "Jastarda oleumettik jauapershilikti qaliptastirudiy teoriyasi men praktikasi" asarida yoshlarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning nazariy asoslarini hamda ijtimoiy xavfni kamaytirishda pedagogik ta'sirning o'rnini asoslab bergan. Shu bilan birga, A. A. Toktamisova ijtimoiy adaptatsiya va inklyuziv muhitda bolalar bilan ishlash texnologiyalarini tahlil qilib, fasilitatorlik va reabilitatsion yondashuvlarning samaradorligini tadqiq etgan.

G. K. Sagindiyeva esa ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi bolalarning emotsional rivoji va ijtimoiy hissiyatini qo'llab-quvvatlashda mentorlik va kouching usullarining ta'sirini ilmiy asosda yoritgan. B. Ye. Jumabayevaning tadqiqotlarida esa jamoa va oila hamkorligi orqali bolalarda ijtimoiy moslashuv va ishonch muhitini yaratishning uslubiy modellari ishlab chiqilgan. Ushbu ilmiy ishlar Qozog'istonda ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni pedagogik va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash muammosi keng qamrovli tarzda o'rganilayotganini ko'rsatadi. Uzoq xorij mamlakatlarida ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ta'lim muhitida moslashuvini ta'minlash va ijtimoiy xavfni bartaraf etish bo'yicha ilmiy izlanishlar keng qamrovda olib borilmoqda. Xususan, amerikalik pedagog Joys L. Epshteyn o'zining mashhur asarida "maktab-oila-jamoa hamkorligi" modelini ilmiy asoslab, ijtimoiy xavf guruhi bolalarida ishonch va hamjihatlik muhitini yaratishning metodik yo'llarini ko'rsatgan.

Britaniyalik tadqiqotchi Rodjer Sli inklyuziv ta'limning ijtimoiy-axloqiy asoslarini yoritib, ta'lim muassasalarida "ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar" tamoyillariga asoslangan pedagogik modellarni taklif etgan. Avstraliyalik olim Trevor Loreman ijtimoiy xavf guruhi bolalarini qo'llab-quvvatlashda empatik yondashuv va fasilitatorlik

usullarining samaradorligini tadqiq etgan. Shuningdek, kanadalik olim Mel Eynskou "inclusive school culture" konsepsiyasini ilgari surib, ijtimoiy xavfni kamaytirishda jamoa hamkorligining rolini ilmiy asosda tahlil qilgan. Yaponiyalik tadqiqotchi Kendzi Yoshikava esa ijtimoiy xavf guruhi bolalarining ruhiy holati va motivatsiyasini reabilitatsiya qilish bo'yicha "community-based support" modelini ishlab chiqqan. Ushbu ilmiy ishlar uzoq xorij mamlakatlarida ijtimoiy xavfni kamaytirish masalasi ta'lim, psixologiya va ijtimoiy siyosat sohalari kesishuvida o'rganilayotganini, hamkorlik va inklyuziv muhit asosida bola rivojini ta'minlash global ilmiy tendensiyaga aylanganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy xavf fenomeni inson hayotining ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq ekanligini ifoda etadi. U bolaning shaxsiy rivojlanishi, ta'lim-tarbiya jarayoni va ijtimoiy moslashuvidagi tashqi ta'sirlar majmuasi orqali namoyon bo'ladi. Pedagogik nuqtayi nazardan, ijtimoiy xavf – bu bolaning ta'lim muhitida, oilada yoki jamoada uning shaxsiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sharoitlar yig'indisidir. Bu fenomenning mohiyati faqat xavf holatini aniqlash emas, balki uning kelib chiqish sabablarini pedagogik, psixologik va axloqiy jihatdan tahlil qilish, bolani ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash tizimi orqali rivojlantirish bilan belgilanadi. Shu jihatdan, ijtimoiy xavf ostidagi bolalar muammosini o'rganish zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u barqaror rivojlanish, inklyuziv ta'lim va insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan ilmiy yondashuvni talab etadi.

Bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirida xavf holatlarining namoyon bo'lishi shaxs rivojining eng nozik va murakkab jarayonlaridan biridir. Chunki har bir bola tabiatan ijtimoiy mavjudot sifatida oila, maktab va keng jamoa muhitida shakllanadi. Agar ushbu muhitdagi munosabatlar tizimida tartibsizlik, zo'rvonlik, befarqlik yoki axloqiy qadriyatlarning buzilishi kuzatilsa, bola rivojida xavf holatlari paydo bo'ladi. Bu holatlar faqat moddiy yetishmovchilik yoki jismoniy xavf bilan cheklanmay, balki emotsional izolyatsiya, ruhiy zo'riqish, shaxsiy qadrsizlanish tuyg'ulari, o'qishga bo'lgan befarqlik va ijtimoiy uzilish kabi ko'rinishlarda ham namoyon bo'ladi.

## XULOSA

Ijtimoiy xavfni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari jamiyat, ta'lim tizimi va inson shaxsining rivojlanish jarayoni o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar bolaning ijtimoiy muhitdagi mavqei, u duch kelayotgan xavf omillari va ularning ruhiy hamda ta'limiy rivojiga ta'sirini ilmiy asosda tahlil etishga qaratilgan. Ijtimoiy xavf muammosini o'rganishda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va ijtimoiy ish fanlarining yondashuvlari uyg'unlashgan bo'lib, ular insonparvarlik, inklyuzivlik va barqaror rivojlanish tamoyillariga tayanadi.

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy xavfni tadqiq etishda ekosistemali (oilamaktabjamo), profilaktik va integrativ ilmiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar bolaning ijtimoiy xavf holatiga tushish sabablarini aniqlash, pedagogik intervensiya vositalarini belgilash hamda xavfsiz, qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Матякубов, О. М. Жастарда элеуметтік жауапкершілікті қалыптастырудың теориясы мен практикасы. – Шымкент: Итм, 2018. – Б. 64.
2. Токтамисова, А. А. Психолого-педагогические условия адаптации детей группы риска в образовательной среде. – Алматы: КазНПУ, 2020. – Б. 57.
3. Сагиндиева, Г. К. Эмоциональное развитие детей группы риска в условиях инклюзивного образования. – Нур-Султан: ЕНУ, 2021. – Б. 42.
4. Жумабаева, Б. Е. Социальная поддержка детей в сообществе и семье как фактор их адаптации. – Алматы: Руханият, 2019. – Б. 38.
5. Epstein, J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – Boulder: Westview Press, 2011. – P. 27.
6. Slee, R. The Irregular School: Exclusion, Schooling and Inclusive Education. – London: Routledge, 2011. – P. 45.
7. Loreman, T. Pedagogy for Inclusive Education: Supporting Every Child in the Classroom. – Sydney: Allen & Unwin, 2017. – P. 63.
8. Ainscow, M. Understanding the Development of Inclusive Education System. – Toronto: OISE Press, 2018. – P. 52.
9. Yoshikawa, K. Child Development and Social Risk Factors in Japan. – Tokyo: Springer, 2020. – P. 71.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.